



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

IBN KHALDUN'S THEORY OF ASABIYYAH AND SOCIAL SOLIDARITY AND ECONOMY IN NEW UZBEKISTAN

Sherzodbek Nazirov*Independent researcher in the field of social philosophy**Faculty of Philosophy**Andijan State University**Uzbekiston, Andijan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Ibn Khaldun, Asabiyya, social solidarity, civilization, public administration, market economy, civil society, national values, social reforms.

Received: 30.05.25**Accepted:** 01.06.25**Published:** 03.06.25

Abstract: This article examines Ibn Khaldun's theory of asabiyya and its connection with social solidarity and economic reforms in New Uzbekistan. It highlights Ibn Khaldun's socio-philosophical views, particularly the importance of asabiyya in the development and stability of society. The article also analyzes Uzbekistan's modern socio-economic reforms, the formation of civil society, and the revival of national values in the context of Ibn Khaldun's theories.

IBN XALDUN ASABIYYA NAZARIYASI VA YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY BIRDAMLIK VA IQTISODIYOT

Sherzodbek Nazirov*ijtimoiy falsafa yo'nalishi mustaqil tadqiqotchisi**Andijon Davlat Universiteti Falsafa fakulteti**O'zbekiston, Andijon*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ibn Xaldun, asabiyya, ijtimoiy birdamlik, sivilizatsiya, davlat boshqaruvi, bozor iqtisodiyoti, fuqarolik jamiyati, milliy qadriyatlar, ijtimoiy islohotlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ibn Xaldunning asabiyya nazariyasi va uning Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy birdamlik hamda iqtisodiy islohotlar bilan bog'liqligi, Ibn Xaldunning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ayniqsa, jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi uchun asabiyya tushunchasining ahamiyati yoritilgan. Maqolada, shuningdek, O'zbekistonning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va milliy qadriyatlarni tiklash jarayonlari Ibn

Xaldun nazariyalari bilan bog'liq holda tahlil qilinadi.

ТЕОРИЯ АСАБИЙИ ИБН ХАЛДУНА И СОЦИАЛЬНАЯ СПЛОЧЁННОСТЬ И ЭКОНОМИКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Шерзодбек Назиров

*Независимый исследователь по направлению социальной философии
факультет философии, Андижанский государственный университет
Андижан, Ташкент*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ибн Халдун, Асабийя, социальная солидарность, цивилизация, государственное управление, рыночная экономика, гражданское общество, национальные ценности, социальные реформы.

Аннотация: В данной статье рассматривается теория асабии Ибн Халдуна и её связь с социальной солидарностью и экономическими реформами в Новом Узбекистане. Освещены социально-философские взгляды Ибн Халдуна, в частности, значение асабии для развития и стабильности общества. Также анализируются современные социально-экономические реформы Узбекистана, формирование гражданского общества и восстановление национальных ценностей в контексте теорий Ибн Халдуна.

Kirish. Musulmon sivilizatsiyasining yorqin namoyondasi Abdurahmon Abu Zayd Ibn Xaldun, 1332-yil Tunisda tavallud topgan. Islom olamining ajoyib tarixi uning shaxsiyatlaridan biridir. U mustahkam oilada tavallud topgani otasi o'zini islom ilmlariga bag'ishlaganigi ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Otasidan va boshqa olimlardan arab tili va adabiyoti, hadis va fiqh kabi sohalarida ta'lim olgan. Musulmon sivilizatsiyasida Ibn Xaldun ijtimoiy fanlarning asoschisi sifatida tanilgan zamonaviy tarixshunoslik, iqtisodiyot va sotsiologiyaning kashshoflaridan biri deb qabul qilinadi. Ibn Xaldun sivilzatsiya rivojiga hissa qo'shgan islom olimi va ulamosidir. Turk-islom tarixi va jahon tarixi nuqtai nazaridan bu muhim qiymat hisoblanadi. U tarixchi, tarix faylasufi, davlat arbobi, jamiyatshunos, tarix va ijtimoiy sohalaridagi asoschisiga aylangan. Har bir sivilzatsiya madaniyatlardan vujudga keladi va dunyodagi barcha madaniyatlarning asosi inson hisoblandi. Bu har bir jamiyatning umumiy boyligi hisoblanadi.

Mavzuiga oid adabiyotlar taxlili va metodlar. Mazkur maqolada Ibn Xaldunning asabiyya nazariyasini va uning Yangi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari bilan bog'liqligini o'rganish uchun turli ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Asosan quyidagi manbalar va usullar ishlatilgan: Ibn Xaldunning "Muqaddima" asari – asabiyya tushunchasi, jamiyat rivoji va davlatning kuchayishi yoki zaiflashishi jarayonlari haqidagi asosiy nazariy manba sifatida ko'rib chiqildi. Islom va G'arb olimlarining Ibn Xaldun haqidagi tadqiqotlari – Ibn Xaldunning tarix,

iqtisod va sotsiologiya borasidagi fikrlarini tahlil qilgan Jozef Shumpeter, Arnold Toynbi, Frants Rozental, Monteil, Dyurkgeym kabi olimlarning asarlari o'rganildi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid hujjatlar – Prezident farmonlari, davlat islohotlari bo'yicha qonunlar, iqtisodiy strategiyalar tahlil qilindi. Ayniqsa, O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha rasmiy hujjatlar o'rganildi. Tarixiy-taqqoslash metodi – Ibn Xaldunning nazariyalari bilan O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarni qiyoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Tahliliy metod – Ibn Xaldunning asabiyya nazariyasining bugungi davrda qanday qo'llanilishi va uning ijtimoiy birdamlikka ta'siri bo'yicha fikrlar chuqur tahlil qilindi. Sotsiologik metod – jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va davlat barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun statistik va empirik ma'lumotlardan foydalanildi. Ushbu metodlar asosida olib borilgan tadqiqot natijalari Ibn Xaldunning asabiyya nazariyasi va Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berishga xizmat qildi.

Muhokama va natijalar. Ibn Xaldun fikricha “Inson tabiatan siyosiy mavjudotdir” deb ta'kidlab o'tgan. Ya'ni inson ijtimoiy tashkilotdan – faylasuflar “madaniylik” (polis) deb ataydigan tuzilmadan – tashqarida yashay olmaydi. Bu ayni sivilizatsiya degani. Inson ijtimoiy tashkilotning (yoki sivilizatsiyaning) zaruriyati quyidagicha izohlanadi: Alloh taolo insonni shunday bir shaklda yaratgan va tartiblaganki, u faqat oziq-ovqat yordamidagina yashashi va mavjud bo'lishi mumkin. Alloh taolo insonni oziq-ovqatga tabiiy extiyoj bilan yaratgan, uni topishga imkon beradigan qobiliyatini uning fitratiga joylashtirdi[1.b.27].

U o'zining “Muqaddima” asarida inson tabiatan ijtimoiy mavjudot ekanligini ta'kidlaydi va jamiyat taraqqiyoti insonlar o'rtasidagi hamkorlik, birdamlik va boshqaruv tizimiga bog'liqligini tushuntiradi. Har bir inson o'z hayotini yaxshilash, bilim va mahoratini oshirish uchun ijtimoiy muhitga ehtiyoj sezadi. Chunki inson yolg'iz holda yashay olmaydi va jamiyat ichida o'zini to'laqonli namoyon eta oladi. Ibn Xaldunning fikricha, insonlar o'zaro hamkorlik qilmasa, jamiyat rivojlana olmaydi. Shu sababli, davlat boshqaruvi va ijtimoiy institutlarning samarali faoliyati inson taraqqiyotida muhim ro'l o'ynaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar ham aynan shu g'oyani qo'llab-quvvatlaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston strategiyasi doirasida ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiy imkoniyatlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Asabiyya nima? Ibn Xaldunning keng qamrovli nazariyasi markazida asabiylik tushunchasi yotadi. Bu atama esa uning eng tarjima qilib bo'lmaydigan atamalaridan biri hisoblanadi va G'arb tarjimonlari na'no jihatidan bir-biridan ancha farq qilgan. Rosenthal buni “guruh hissi” deb tarjima qiladi, Monteil asosan “esprit de corps” yoki “esprit de clan” sifatida.

Buni tenglashtirish noto‘g‘ri ko‘rinadi. Dyurkgeymning mexanik birdamligi va Ibn Xaldunga bu davoni bog‘lash birdamlik mahkamasi [2.b.5-6].

Ibn Xaldun asabiylikni tushunish juda murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, asabiyya mexanik birlikdir. Ibn Xaldun ta’kidlashicha, nafsga qandaydir omil, qandaydir turtki bo‘lishi kerak, hamkorlik ba’zi insonlar orasida boshqalarga qaraganda kengroq miqyosda mavjud bo‘lishi. Bu omilni asabiyya deb ataydi, bu so‘zni klassik qo‘llanishidan o‘zlashtirib olgan va o‘zi shunday so‘z yangi ijobiy ma’no beradi. Inson o‘zini eng yaqin his qiladigan guruh uning urug‘ yoki qabilasi, u umumiy nasldan bo‘lgan odamlar birlashtirilgan. Lekin siyosiy jihatdan asabiylikni bir-biriga qon rishtalari bilan bog‘liq bo‘lmagan odamlar ham ulashishi mumkin lekin guruh a’zolari sifatida uzoq va yaqin aloqalar orqali. Ibn Xaldun: “Qon rishtalari kishining qarindosh-urug‘iga, qoniga mehr qo‘yishiga olib keladi. Qarindoshlariga hech qanday yomonlik ham. Halokat ham yetmas” [3.b.98].

Faylasufning fikrlarini o‘rgangan holatda biz “asabiyya” tushunchasini “jipslik” deb izohlaymiz. Asabiyya – bu Ibn Xaldun tomonidan kiritilgan tushuncha bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy birdamligi, jamoaviy birlik va hamkorlikni ifodalaydi. Bu tushuncha Ibn Xaldunning Muqaddima asarida keng yoritilgan bo‘lib, jamiyatning barqarorligi va davlatlarning kuchayishi yoki zaiflashishining asosiy omili sifatida tushuntiriladi. Ibn Xaldun asabiyyani jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va o‘zaro ishonch darajasi deb ta’riflaydi.

Unga ko‘ra: Kuchsiz asabiyya – davlatning inqiroziga olib keladi. Kuchli asabiyya – jamiyatning barqarorligi va davlatning qudratli bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ibn Xaldun davlatlarning o‘sishi va yemirilishi haqida siklik nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha, dastlab davlatni barpo etgan guruhlarining asabiyyasi kuchli bo‘ladi, ammo vaqt o‘tishi bilan boylik va hashamat ta’sirida bu birdamlik zaiflashadi, natijada davlat zaiflashib, inqirozga yuz tutadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar ham aynan jamiyatdagi asabiyyani mustahkamlashga qaratilgan. Xususan, milliy o‘zlik va qadriyatlarni tiklash – madaniy merosni asrab-avaylash, an’anaviy qadriyatlarni rivojlantirish. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish – davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni rivojlantirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash. Ijtimoiy himoya va birdamlik – ijtimoiy yordam dasturlarini kengaytirish, aholining turmush darajasini oshirish. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash bo‘yicha qator muhim farmon va qarorlar qabul qilingan. Quyida ushbu yo‘nalishlardagi asosiy hujjatlar keltiriladi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish. Prezidentning 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son farmonida “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6.b.1]. Ushbu farmon fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu farmon fuqarolik

jamiyatini rivojlantirish, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va boshqa jamoat institutlarining huquqiy maqomini mustahkamlash hamda ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan. Farmonga ko'ra, quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilangan:

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy bazasini takomillashtirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish. Bu borada NNT va jamoat birlashmalariga grantlar ajratish, ularning mustaqil faoliyat yuritishiga sharoit yaratish belgilangan.

Ikkinchidan, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi ochiq muloqotni rivojlantirish. Xususan, ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish, aholining davlat qarorlarini qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etishini ta'minlash muhim vazifalar qatoriga kiritilgan. Shu munosabat bilan jamoatchilik kengashlari va nodavlat sektor vakillarining davlat dasturlarini muhokama qilishdagi ishtiroki oshirilmoqda.

Uchinchidan, farmon fuqarolik jamiyatining axborot maydonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ommaviy axborot vositalari (OAV) erkinligini kengaytirish, jurnalistlar va bloggerlarning jamiyat hayotidagi muhim masalalarni yoritishda erkinligini ta'minlash masalalari ham ilgari surilgan.

To'rtinchidan, fuqarolik jamiyatining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida fuqarolarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgan. Bu jarayonda davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar va ta'lim muassasalarining hamkorligi kuchaytirilmoqda.

Beshinchidan, jamoat nazoratining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Fuqarolik jamiyati institutlari davlat idoralarining faoliyati ustidan nazorat olib borishi, korrupsiyaga qarshi kurashish, qonun ustuvorligini ta'minlashda faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu jumladan, davlat idoralarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimida elektron xizmatlardan foydalanish hajmi kengaytirilmoqda. Farmon fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, uning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda O'zbekistonni demokratik islohotlar yo'nalishida rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir. Ushbu islohotlar natijasida fuqarolarning jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etish imkoniyatlari kengayib, huquqiy madaniyat va ijtimoiy faollik oshdi.

Prezidentning 2018-yil 14-noyabrdagi PQ-4017-son Qarori: "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" [7.b.1]ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida. Ushbu qaror fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga hissa qo'shgan shaxslarni rag'batlantirish maqsadida qabul qilingan.

Prezidentning 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to'g'risida"[8.b.1]. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan milliy madaniyatni asrash, rivojlantirish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida qabul qilingan. Hujjat O'zbekistonning boy madaniy merosini tiklash, milliy qadriyatlarni mustahkamlash va madaniy jabhada xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan.

Qarorning asosiy maqsadlari milliy madaniyatni asrash va rivojlantirish – O'zbek xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini saqlash, milliy san'at va madaniyatni keng targ'ib qilish. Zamonaviy madaniy infratuzilmani yaratish – teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, madaniyat markazlari va ijodiy uyushmalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish – milliy va xalqaro miqyosdagi festivallar, konsertlar, ko'rgazmalar va simpoziumlarni tashkil qilish. Madaniyat sohasida ta'lim tizimini rivojlantirish – san'at va madaniyat sohasidagi kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish. Madaniyat sohasi uchun moliyaviy va moddiy-texnik bazani mustahkamlash – davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish.

Qarorga muvofiq amalga oshirilgan asosiy ishlar "O'zbekiston madaniy merosi dunyo to'plamlarida" loyihasi doirasida milliy madaniyatimizga oid asarlar kataloglari yaratildi va nufuzli xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlik kuchaytirildi. Madaniy tadbirlar va festivallar – "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Lazgi" xalqaro raqs festivali, "Ipak yo'li durdonasi" xalqaro kino festivali kabi nufuzli tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda. Milliy madaniyat markazlarini rivojlantirish – mamlakatimizdagi viloyat madaniyat markazlari va teatrlar rekonstruksiya qilinib, yangi muassasalar barpo etildi.

Prezidentning "Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida".[9.b.1] Ushbu qaror jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan to'g'risidagi qarori. Ushbu farmon va qarorlar O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

"Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy bo'ladi" [4.b.15] degan tamoyil Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan bo'lib, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy g'oyalaridan biridir. Bu tamoyil xalq farovonligini oshirish orqali davlatning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga qaratilgan.

Erkin iqtisodiyot va tanlash erkinligi uchun kuchli da'vo qilgan Adam Smitdan ancha oldin ham Ibn Xaldun edi. Eng zulmkor va jamiyatga eng chuqur zarar yetkazuvchi chora-tadbirlar qatorida fuqarolarni nohaq majburiy mehnatga majburlash kiradi. Zero, mehnat tovardir, buni keyinroq ko'rsatamiz, chunki daromad va foyda ularni oluvchilarning mehnati qiymatini ifodalaydi... yo'q, ko'pchilik odamlarning mehnatidan boshqa daromad manbai yo'q. Shunday qilib, agar ular o'zlari o'qiganlaridan boshqa ishni qilishga majburlansa yoki o'z kasblari bo'yicha

majburiy mehnatga majburlansalar, ular mehnatining samarasini yo'qotadilar va ko'p qismidan mahrum bo'lishadi, ularning daromadlari.

Ibn Xaldun dastlab birgalikda "ishlab chiqarish" faoliyatiga katta e'tibor berdi, jamiyat moddiy qiymatlar "ishlab chiqaruvchilar" jamoasidan iborat deydi. U "Odamning kelib chiqishida mehnatning o'rni"ni ochib berishga harakat qilgan. Hunarmandchilik, fan va san'atning rivoji bevosita "mehnat unumdorligining o'sishi" bilan bog'liq deydi. "Oddiy" va "murakkab" mehnat farqlangan, mehnat bo'lmasa, buyum ham bo'lmas edi, degan muhim qisqacha xulosalar chiqariladi. Olim fikrlarida "zaruriy" va "qo'shimcha mahsulot", "zaruriy va qo'shimcha mehnat" tushunchalari farqlanadi. U "tovarning iste'mol qiymati" va "qiymat" tushunchalarini ta'rifladi. Zamon va makonda o'z zamondoshlaridan ancha ilgari bu g'oyalarni berdi. "Oldi-sotdi bitimi asosida teng ayirboshlash qoidasiga amal qilinishi kerak, bunda sarflangan mehnatning teng yarmi ayirboshlanadi" [5.b.29].

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilib, bu yo'nalishda bir qator muhim farmon va qarorlar qabul qilingan. Quyida ushbu jarayonga oid asosiy hujjatlar keltiriladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son Farmoni: "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"[10.b.1]. Ushbu farmon mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Farmonning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash: Inflyatsiya darajasini pasaytirish, milliy valyuta barqarorligini saqlash va byudjet intizomini kuchaytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish. Soliq va byudjet siyosatini takomillashtirish: Soliq tizimini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash. Bank-moliya tizimini isloh qilish: Bank tizimining barqarorligini oshirish, kredit resurslariga kirishni kengaytirish va moliyaviy xizmatlarning ommabopligini ta'minlash. Xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish: Davlat mulkini xususiylashtirishni tezlashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish va investitsiya muhitini yaxshilash. Tadbirkorlikni rivojlantirish: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish. Hududiy rivojlanishni ta'minlash: Hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va mahalliy boshqaruv organlarining rolini kuchaytirish. Ijtimoiy sohani rivojlantirish: Bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish. Ushbu farmon doirasida qabul qilingan chora-tadbirlar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va xalq farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-sentabrda PF-5177-son farmoni “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” [11.b.1]. Ushbu farmon bilan milliy valyuta – so‘mning erkin konvertatsiyasi ta‘minlanib, xorijiy valyuta operatsiyalarida erkinlik berildi. Ushbu farmon mamlakatda valyuta siyosatini liberallashtirish, ya‘ni valyuta bozorini erkinlashtirish va milliy valyutaning konvertatsiyasini ta‘minlashga qaratilgan. Farmon qabul qilingandan so‘ng, 2017-yil 5-sentabrdan boshlab mobil aloqa operatorlari o‘z xizmatlari uchun tariflarni milliy valyutada belgilashga o‘tganlar. Shuningdek, ushbu farmon valyuta bozorini liberallashtirish jarayonlarida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan qat‘iy monetar siyosat olib borishni belgilagan. Mazkur farmon qabul qilinishi bilan, mamlakatda valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi va bu iqtisodiyotning ochiqqligini oshirishga xizmat qildi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son Farmoni: “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida”[12.b.1]. Ushbu farmon davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirishga qaratilgan. Farmon bilan xususiylashtirishdan oldin tayyorlash va xususiylashtirish dasturi tasdiqlangan. Shuningdek, ushbu farmon davlat mulkini boshqarish tizimini takomillashtirish va davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirishga oid chora-tadbirlarni belgilaydi. Mazkur farmon davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish orqali iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va raqobatbardosh muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat boshqaruvi, huquqiy tizim, ijtimoiy himoya, madaniy qadriyatlarni tiklash, bozor iqtisodiyotiga o‘tish va xalqaro integratsiyani o‘z ichiga oladi. Ushbu islohotlarning ko‘pchiligi Prezident Shavkat Mirziyoyevning strategik qaror va farmonlari bilan huquqiy asosga ega bo‘lib, mamlakat taraqqiyotining barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Ibn Xaldunning davlat va jamiyat haqidagi qarashlari O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilganda, ayniqsa, ijtimoiy birdamlik (asabiyya) tushunchasi davlat barqarorligi va samaradorligi uchun muhim omil ekanligi ayon bo‘ladi. Ibn Xaldunning ta‘kidlashicha, jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy birlik va kuchli boshqaruv muhim rol o‘ynaydi. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni ham iqtisodiy sikllar nazariyasi nuqtayi nazaridan ahamiyatli hisoblanadi. Islom Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan

“O‘zbek modeli” asosida boshlangan iqtisodiy islohotlar bugungi kunda Shavkat Mirziyoyev boshchiligida yanada jadallashib, iqtisodiy liberallashtirish, davlat mulkini xususiylashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mustahkamlanmoqda. Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, milliy qadriyatlarni tiklash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan. Ibn Xaldunning ijtimoiy-falsafiy ta’limoti bilan bog‘laganda, ushbu islohotlar jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlash uchun muhim strategik qadamlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун, Мукаддима. Тошкент, 2024.
2. Arnason, Johann P. and Stauth, Georg “Civilization and State Formation in the Islamic Context: Re-Reading Ibn Khaldun” 2004.
3. Ibn Khaldun, The Muqaddimah. {Translated By Franz Rosenthal, Edited By N.J. Dawood, 1967} London: Routledge and Kegan Paul Ltd.
4. Sh.M.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik davlatni birgalikda barpo etamiz., O‘zbekiston. 2016.
5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik.- Toshkent.: «Iqtisod - moliya» - 2007 y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.05.2018 yildagi PF-5430-son
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.11.2018 yildagi PQ-4017-son
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.11.2018 yildagi PQ-4038-son
9. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.01.2019 yildagi PF-5614-son
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.09.2017 yildagi PF-5177-son
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.10.2020 yildagi PF-6096-son